

МУАССИМ ҲӘМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛДІМДЕНДИРИҮ



Илимий-методикалық журнал

2023

2/1-сан

*Озбекстан Республикасы Министрлер Кабинети жасындағы
Жоқарғы Аттестация Комиссиясы Президиумының
25.10.2007 жыл (№138) қарапы менен дизимге алынды*

*Қарақалпақстан Баспа сөз ҳәм хабар агентлигі тәрепинен
2007-жылы 14-февральдан дизимге алынды.
№01-044-санлы гүйалық берилген.*

Нөкис

2/1-сан 2023

март-апрель

Шолкемлестириүшилдер:

**Қарақалпақстан Республикасы Халық билимлендіриү Министрлигі,
ӨЗПИИИ Қарақалпақстан филиалы**

**Редактор:
А. Тилегенов**

Редколлегия ағзалары:

Максет АЙЫМБЕТОВ	Сабит НУРЖАНОВ
Нағмет АЙЫМБЕТОВ	Урлбай МИРСАНОВ
Байрамбай ОТЕМУРАТОВ	Нуржан МАТЧАНОВ
Ерполат АЛЛАМБЕРГЕНОВ	Шукурилло МАРДОНОВ
Алишер АЛЛАМУРАТОВ	Бахтиёр РАХИМОВ
Дилшодхұжа АЙТБАЕВ	Арзы ПАЗЫЛОВ
Тұлқин АЛЛАЁРОВ	Барлықбай ПРЕНОВ
Умида БАҲАДИРОВА	Қаҳхор ТУРСУНОВ
Фархад БАБАШЕВ	Нурзода ТОШЕВА
Гулзода БОЙМУРОДОВА	Тажибай УТЕБАЕВ
Маманазар ДЖУМАЕВ	Амангелди КАМАЛОВ
Асқар ДЖУМАШЕВ	Ризамат ШОДИЕВ
Гүлнара ЖУМАШЕВА	Зафар ЧОРШАНБИЕВ
Мырзамурат ЖУМАМУРАТОВ	Дүстназар ХИММАТАЛИЕВ
Умида ИБРАГИМОВА	Гулрухсөр ЭРГАШЕВА
Меруерт ПАЗЫЛОВА	Гавхар ЭЩАНОВА
Аскәrbай НИЯЗОВ	



INNOVATSION JAMIYAT SHAROITIDA ZAMONAVIY O'QITUVCHILARGA BO'LGAN EHTIYOJLAR

Janbayeva M. S.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: innovatsiya, zamonaviy o'qituvchilar, pedagogik odob, pedagogik takt, pedagogik jamoa, mahorat sirlari.

Ключевые слова: новаторство, современные педагоги, педагогический этикет, педагогический такт, педагогический коллектив, секреты мастерства.

Key words: innovation, modern teachers, pedagogical etiquette, pedagogical tact, pedagogical team, secrets of skill.

Dunyoning ta'lrim muassasalarida va yetakchi ilmiy-amaliy markazlarida o'qituvchilarning innovatsion talablar asosida tarbiyalanganlik omillari tadqiq etilmoqda. Bu borada Germaniyaning Bonn universiteti "Innovator o'qituvchi" ilmiy-tadqiqot markazi, Fillandiyaning Helsinki universiteti "Amaliyat o'qituvchisi" ilmiy-amaliy laboratoriysi kabi ilmiy markazlarda amalga oshirilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlari samarali bo'lmoqda. Bunday ilmiy markazlarda ishlab chiqilgan nazariy-metodik tavsiyalar asosida dunyo mamlakatlari oliv ta'lim muassasalari bo'lajak o'qituvchilarni innovator va amaliyoichi pedagoglar sifatida tayyorlashga asosiy e'tiborni qaratmoqda.

Mamlakatimizda innovatsion jamiyatni barpo etish va bu jarayonda bunday jamiyat talablariga mos o'qituvchilarni tayyorlash ishlari amalga oshirilmoqda. Innovatsion jamiyat sharoitida zamonaviy o'qituvchilarga bo'lgan ehtiyojlar mamlakatimizda ham dolzarb bo'lib kelmoqda.

"Sifatli ta'lim, endi kechagidek dars berishni zamonning o'zi qabul qilmaydi, mumkin ham emas. Maktab qurib berishimiz shart. Ichidagi muhit, ta'lim, milliy g'urur va iftixorimiz nuqtayi nazari o'qituvchilarga bog'liq", — deya murojaat qildi Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev.

Demak, zamonaviy o'qituvchilar yangi bilimlar bilan qurollangan, innovatsion va interaktiv metodlarni dars davomida samarali foydalana oladigan, o'quvchilarni odob-axloq normalariga amal qilishga tarbiyalaydigan ustuvor vazifalarni bajarishlari zarur ekanlar.

O'qituvchining odobi, madaniyati yuksak bo'lsagina odamlarga nisbatan mehribon, sahovatli bo'la oladi, uni hamma hurmat qiladi. U pedagogik etikaning normalarini o'zlashtirib olishi, tajribada qo'llashi, o'zining dunyoqarashi va



axloqiy tajribasi bilan taqqoslashi lozim. Bu axloqiy e'tiqod o'qituvchining dars berish jarayonida, tarbiyaviy ishlarda, o'quvchilar va boshqalar bilan munosabatlarda, muomalasida, kundalik turmushda o'zining shaxsiy namunasi bilan axloqiy (barcha tarkiblar bo'yicha) ta'sir o'tkazish ko'zga tashlanadi.

Axloq nazariyasida yaxshilik eng muhim kategoriya hisoblanadi. Unda o'qituvchi va o'quvchilar jamoasi manfaatlarining birligi, muallim va o'quvchi maqsadining birligi aks etadi. Yaxshilik fazilati ikkala tomonning ham yaxshi niyatli, xayrihoh, mehribon bo'lishini taqozo qiladi.

Shaxs axloqini xarakterlaydigan belgilaridan biri mas'uliyatdir. Uning mas'uliyati - mas'uliyat tushunchasining butun mazmunini saqlagan holda muallimning faoliyati va ta'lim-tarbiya jarayonining aniq vazifalarini ham o'z ichiga oladi. O'qituvchi zimmasiga bola shaxsini har tomonlama kamol toptirish mas'uliyati yuklanadi. Muallim sinfda jamiyatning vakili sifatida o'quvchilar jamoasi bilan yolg'iz o'zi ish olib boradi. Pedagogik odobga ega bo'lgan o'qituvchi, o'quvchilar orasida obro' qozonadi. U qanchalik ko'p obro' qozonsa, ta'lim-tarbiya mohiyatan shunchalik, samarali ta'sir ko'rsatadi. Xullas obro' o'qituvchilik faoliyati uchun zarur xususiyatdir. Obro' uning chuqur bilimi, yuksak axloqiy sifatlari, hayot tajribasi, ilmiy tadqiqot va jamoat ishlarida faol ishtirok etishi tufayli orttirilgan, ko'pchilik tomonidan e'tirof etilgan ta'siri, nufuzidir.

V.A.Suxomlinskiy "...faqat insonparvarlik, erkatalish, mehribonlik orqaligina... haqiqiy insonni tarbiyalash mumkinligiga ishonchim komil", - degan. Pedagogik faoliyat o'z mohiyatiga ko'ra ijobjiy xarakterga ega. Ma'lumki, inson oldida bular muammo bo'lib turganidagina ijodkorlikka ehtiyoj tug'iladi.

Pedagogik ijodkorlik manbai - bu pedagogik tajriba va izlanuvchanlikdir. U muammoli vaziyatlarga boydir. Ilg'or pedagogik tajriba deganda biz o'qituvchining o'z pedagogik vazifasiga ijobjiy yondashishni, o'quvchilarning ta'lim-tarbiyasida yangi, samarali yo'l va vositalarni qidirib topishni tushunamiz. Ilg'or pedagogik tajribani o'rganish, unga asoslanib yangi pedagogik hodisa va qonuniyatlarni ochish o'quv-tarbiya jarayoniga yaxshi sifatl o'zgarishlar kiritadi. Innovatsion jamiyatda hozirgi zamon fan va texnika taraqqiyoti o'qituvchining ijodkor bo'lishini, fanning muhim muammolarini yuzasidan erkin fikr yurita olish, fan yutuqlarini o'quvchilarga yetkaza olishi va nihoyat o'quvchilarni ham ijobjiy fikrlashga, tadqiqot ishlariga o'rgata olishini talab qiladi.

Milliy odob-axloq va huquqiy qadriyatlar asosida komil insonni tarbiyalash demokratik huquqiy davlatning asosiyl vazifasidir. Milliy huquqiy tizimni fuqarolarning huquq va erkinliklariga zid bo'lmagan odob-axloq va huquqiy ma'daniyat qoidalari bilan to'ldirib borish qonunchilik faoliyatimizning ham bosh mezoni bo'lishi kerak. Mustaqillik huquqiy tafakkuri, umuminsoniy va milliy qadriyatlar, vatanparvarlik, adolatparvarlik, huquqiy merosni asrab-avaylash va



ijtimoiy hayotning hamma jabhalarida uni qaror toptirishga qolaversa, axloqiy fazilatlarni shakllantirishga yordam beradi.

Abu Nasr Farobi iborasi bilan aytganda, - aholisi xushxulqqa ega bo‘lmagan mamlakatda hokimiyatga ehtiyoj seziladi. Demak, jamiyatning nechog‘lik demokratlashuvi fuqarolar erki, huquq, erkinliklari, burchlarini bajarishi eng avvalo, adolatli jamiyat aholisining fe'l-atvoriga, ma’naviy-axloqiy va ular huquqiy kamolotiga bog‘liqdir. Milliy odob axloq va an'analar ham shaxs huquqiy ongini oshishida muhim o‘rin tutadi. Shaxsning barkamol sifatida shakllanishi o‘qituvchi –muallimlarga bog‘liqdir.

O‘qituvchi halollik, rostgo‘ylik, axloqiy poklik, odamiylik, kamtarlik kabi fazilatlarga ega bo‘lishi pedagogik odobining muhim talab- qoidasidir. Muallim deyarli har kuni o‘quvchilar bilan uchrashadi, savol- javob qiladi, ularning yaxshi xulqi, ezgu ishlarini ma’qullaydi, bilimini baholaydi, nojo‘ya xatti - harkati uchuntanbeh beradi.

Albatta, o‘qituvchining fikri, mulohazalarida nisbiylik, subyektivlik alomatlari mavjud. U hammaga aynan birdek to‘g‘ri munosabatda bo‘la olmasligi mumkin, lekin u hamma o‘quvchilarga nisbatan xolis niyatli, yaxshilik qilishga intiluvchi, adolatli kishi ekanligiga barchaning ishonchi komil bo‘lmog‘i lozim. Sinfda o‘qituvchi “yaxshi ko‘radigan”, “yomon ko‘radigan” bor degan taasurot tug‘ilmasligi kerak.

Xulosa qilib aytganda, innovatsion jamiyat sharoitida o‘qituvchilar yangiliklarni bilishga intiluvchi, yangiliklar yaratishga kreativligi yuqori va mustaqil fikriga ega hamda o‘quvchilar hissiyotini tushuna oladigan, shaxsning ijodkorlik qobiliyatlarini, aqliy intellektini rivojlantiradigan namunali, tarbiyali inson bo‘lmog‘i lozim.

Adabiyotlar:

1. A.Xoliqov. “Pedagogik mahorat” darslik. – Toshkent, 2011
2. B.Xodjayev. “Umumiy pedagogika”. – Toshkent, 2017
3. O‘tayev A.Ta‘lim taraqqiyotida Renessansning roli. Academic Research in Educational Sciences. 2020.
4. Sh.A.Abdijalilova, Janbaeva M.S. Innovatsion jamiyat sharoitida bo‘lajak o‘qituvchilarning milliy odob madaniyatini rivojlantirish. NamGU ilmiy axborotnomasi–2022-yil_11- Scientific Bulletin of NamSU-Nauchnyiy vestnik son.

РЕЗЮМЕ

Yangi O‘zbekiston sharoitida zamonaviy o‘qituvchilarga bo‘lgan ehtiyoj kundan-kunga ortib bormoqda. Ushbu maqlolada innovatsion jamiyat sharoitida zamonaviy o‘qituvchilarga bo‘lgan ehtiyojar haqida fikr yuritilgan.

РЕЗЮМЕ

Потребность в современных учителях в условиях нового Узбекистана возрастает день ото дня. В данной статье рассматриваются потребности в современных учителях в условиях инновационного общества.

SUMMARY

The need for modern teachers in the conditions of new Uzbekistan is increasing day by day. This article discusses the needs for modern teachers in the conditions of an innovative society.

Т. Н. Қары Ниязий атындағы Өзбекстан педагогикалық
илим-изертлеу институтының Ж. Орынбаев атындағы Каракалпақстан филиалы

**«МУГАЛЛИМ ҲӘМ ҮЗЛИКСИЗ
БИЛИМЛЕНДИРИҮ»**

№ 2/1

Нөкис — 2023

Басып шығыўға жуўапкер:

A. Тилегенов

Баспаға таярлаған:

A. Тилегенов, Р. Утенов

Компьютерде таярлаған:

П. Реймбаев

Мәнзил: Нөкис қаласы, Ерназар Алакөз көшеси №54

Тел.: 224-23-00

**e-mail: uzniipnkkf@mail.uz,
mugallim-pednauk@mail.uz
www.mugallim-uzliksiz-bilim.uz**

Журналга келген мақалаларга жуўап қайтарылмайды, журналда жерияланған мақалалардан алынған үзиндилер «Мугаллим ҳәм үзликсиз билимлендериү» журналынан алынды, дең көрсетилиши шәрт. Журналга 5-6 бет көлеміндеги материаллар еки интервалда TIMES NEW ROMAN шрифтинде электрон версиясы менен биргеле қабыл етиледи. Мақалада көлтирилген маглыўматларга автор жуўапкер.

Оригинал-макеттен басыўға рухсат етилди 03.04.2023. Форматы 70x100^{1/8}
«Таймс» гарнитурасында оффсет усылында басылды.

Шәртли б.т. 29,5 . Нашр. т. Нусқасы _____ Буйыртпа №